

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI

**O‘ZBEK TILIDAGI RAMZIY MA’NONING
ANTROPOTSENTRIK ASPEKTI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi

O'zbek tilidagi ramziy ma'noning antropotsentrik aspekti..... 3

Mukhammadaliyeva Shakhzoda Makhmud kizi

Anthropocentric aspect of symbolic meaning in the Uzbek language 25

Мухаммадалиева Шахзода Махмуд кызы

Антропоцентрический аспект символического значения в узбекском языке..47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI

**O‘ZBEK TILIDAGI RAMZIY MA’NONING
ANTROPOTSENTRIK ASPEKTI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3282 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasining www.tsuull.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimova Muhayyo Karimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sobirov Abdulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Muqimova Zohida Rasulovna
filologiya fanlari doktori, katta ilmiy
xodim

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., akademik

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi davrlarda til birliklari va lisoniy hodisalarni inson omili bilan birga tahlil qilish, antropotsentrik jihatdan o‘rganish yetakchilik qilmoqda. Antropotsentrik paradigma asosida amalga oshirilayotgan semantikaga oid tadqiqotlar ham sifat o‘zgarishlariga uchradi. Til birliklarning ma’no xususiyatlari tahlilida til egasining o‘rni, uning kognitiv, madaniy va aksiologik jihatlarining ta’sirini o‘rganish kun tartibiga qo‘yildi.

Dunyo tilshunoslari bu kabi tadqiqotlarda “ramz” tushunchasi hamda uning lisoniy ifodasiga ko‘proq diqqat qaratmoqdalar. Turli tillarda xalqlarning olam manzarasiga bo‘lgan milliy nigohi, milliy-mental tafakkur tarzi, madaniyati va qadriyatlar tizimi “ramz”larni lingvomadaniy, lingvokognitiv, aksiolingvistik tadqiqi orqali izohlanmoqda. Bunday tadqiqot ishlarining o‘ziga xos natijalari olamning lisoniy manzarasi milliy idrok intizomi orqali shartlanganini ko‘rsatadi. Shuning uchun har bir tilda milliy-mental asosli ramziy ma’nolarni antropotsentrik jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan odilona til siyosati natijasida tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. “Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanishga erishmog‘imiz zarur”¹. Ayniqsa, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini antropotsentrik jihatdan tadqiq qilish orqali tilda milliy-mental xususiyatlarning namoyon bo‘lishi ochiq-lana boshlandi. Milliy-mental xususiyatlar til birliklarini ramzlashtirish jarayonlarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida olamning lisoniy manzarasi o‘ziga xos milliy qiyofada voqelanishi, tilda ramziy ma’nolar orqali milliy tafakkur va madaniyatning yorqinroq aks etishi mumkinligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ta’minlaydi. O‘zbek tilshunosligida ramziy ma’noning antropotsentrik jihatdan monografik planda tadqiq qilinmaganligi ushbu mavzuning o‘rganish zaruratini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-sonli “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7776360>.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tilshunoslikda ramziy maʼno masalasi inson tafakkuri, madaniyati, dunyoqarashi, olamni idrok etish jarayoni bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u antropotsentrik aspekt doirasida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Jahon tilshunosligida mavzuga doir ilmiy fikrlar V.Gumboldt, N.Arutyunova, V.Maslova, V.Krasnix, Y.Solodub, T.Evsyukova, S.Ivanova, V.Kolesov, N.Alifirenko va boshqa olimlarning ishlarida uchraydi².

Ramz tilshunoslikda turli nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. F.de Sossyur, Ch.Pirs, Y.Lotmanlar ramzlarni semiotik jihatdan talqin qilib, ramzlar nazariyasiga oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshdilar³. N.Arutyunova, A.Golan, M.Makovskiy va boshqa olimlar tomonidan ramzlarning madaniyatshunoslikdagi oʻrni yoritilgan⁴. Kognitiv tilshunoslik doirasida J.Lakoff hamda M.Jonsonlar tomonidan ilgari surilgan kognitiv metafora nazariyasi ramziy maʼnoning antropotsentrik tabiatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyada ramziy birliklar insonning tarixiy-madaniy tajribasi asosida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan⁵.

Rus tilshunosligida ramzlar tilshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika nuqtayi nazaridan monografik planda A.Medvedova tomonidan tadqiq qilingan⁶. Ramzning lingvistik jihatdan yoritilishi, unga xos boʻlgan muhim xususiyatlar Y.Shelestyuk tadqiqotida⁷, xristian simvolikasining rus

² Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.; Арутюнова Н. Образ, метафора, символ в контексте жизни и культуры // Res Philologica: Филологические исследования. – М.: Наука, 1990. – С.71–88.; Маслова В. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Красных В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.; Солодуб Ю. Textoобразующая функция символа в художественном произведении // Филологические науки. 2002. – № 2. – С. 46-55.; Евсюкова Т. Лингвокультурологическая концепция словаря культуры: Автореф. ... дисс. д-ра филол. наук. – Нальчик, 2002. – 42 с.; Иванова С. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Автореф. ... дисс. д-ра филол. наук. – Уфа, 2003. – 41 с.; Колесов В. Язык и ментальность. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2004. – 240 с.; Алефиренко Н. Лингвокультурология: Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Наука, 2010. – 288 с.

³ Соссюр Ф. Умудий тилшунослик курси. Француз тилидан И. Мирзаев таржимаси. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – 308 б.; Пирс Ч. Принципы философии. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. – 424 с.; Лотман Ю. Избранные статьи. Том 1. – Таллинн: Александра, 1992. – 479 с.

⁴ Арутюнова Н. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.; Голан А. Миф и символ. – М.: Руслит, 1993. – 376 с.; Маковский М. Язык-мифкультура: Символы жизни и жизнь символов. – М., 1996. – 329 с.

⁵ Lakoff G. and Johnson M. Metaphors we live by. – London: The university of Chicago press, 2003. – 192 p.

⁶ Медведева А. Символическое значение как тип значения слова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2000. – 187 с.

⁷ Шелестюк Е. О лингвистическом исследовании символа // Вопросы языкознания. 4. – М.: Наука, 1997. 125-143 с.

tilida verballashuvi, ramzning yondosh hodisalar bilan farqlanishi I.Guzenko tadqiqotida aks etgan⁸.

O'zbek filologiyasida ramziylik adabiyot, folklor va tilshunoslik sohalarida o'rganilgan. N.Jumatova, S.Jumayeva, S.O'tanova, Z.Mamadaliyeva, O.Ochilov, N.Toirova, A.Abdurahmonov, S.Majitova, S.Qo'chqorova, D.Sharipovalarning dissertatsiyalari ramz va ramziy ma'noning badiiy talqiniga bag'ishlangan⁹. A.Sharapov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, A.Tilavov, D.Mingboyeva, Sh.Noralieva, M.Ro'ziyeva, N.Sabirovalarning tadqiqotlarida folklor asarlari matnidagi ramziylik masalalari yoritilgan¹⁰.

O'zbek tilshunosligida mavzu yuzasidan N.Djusupov, Sh.Atayev, D.Tosheva, A.Abdullayev, I.Rejapov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan¹¹.

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida ramziy ma'no antropotsentrik aspektida maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

⁸ Гузенко И. Христианская Символика в русском языке: вербализация, функционирование, эволюция: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2009. – 237 с.

⁹ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъротида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 126 б.; Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъротида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 126 б.; Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 138 б.; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг "Лисон-ут тайр" достонидаги рамзий образлар тизими: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 177 б.; Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеъротида рамзлар семантикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 148 б.; Тоирова Н. Бадий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг ғоявий-эстетик вазифалари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 133 б.; Абдурахмонов А. Ўзбек шеъротида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспектида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 50 б.; Мажитова С. Жомий ғазалиётидаги рамзий истилоҳларнинг луғавий ва мажозий маъноларини талқин қилиш усуллари: Филол. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2018. – 152 б.; Қўчқорова С. Ўзбек ва француз эртақларида маданий рамзларнинг коммуникатив-прагматик роли: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – 150 б.; Sharipova D. Ingliz va o'zbek adabiyotida ramzlarning lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2025. – 47 b.

¹⁰ Шарапов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 224 б.; Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 184 с.; Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – 191 б.; Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 170 б.; Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Sano-standart, 2021. – 160 б.; Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 280 б.; Норалиева Ш. Ўзбек фольклорида бўри образининг мифологик асослари ва бадий талқини. – Тошкент: Ал-фаба сервис, 2013. – 115 б.; Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 147 б.; Сабирова Н. Хоразм халқ лирик кўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадий-эстетик вазифалари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 156 б.

¹¹ Джусупов Н. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2006. – 173 с.; Атаев Ш. Символик воситаларнинг немис тилидан ўзбек тилига берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 173 б.; Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 151 б.; Abdullayev A. O'zbek tilida ramzning ifodalanishi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2024. – 152 b.; Rejapov I. Olamning lisoniy manzarasida sonlarning ramziy ahamiyati (ingliz va o'zbek tillari materiallarida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Urganch, 2025. – 56 b.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi ramziy ma’noni antropotsentrik jihatdan, xususan, lingvomadaniy, konseptual va aksiolingvistik tadqiq qilish hamda olingan ilmiy natijalar orqali ramziy ma’noning til egalarining madaniyati, milliy tafakkuri, qadriyatlar tizimi bilan shartlanganligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ramziy ma’noning mohiyatini aniqlash, shakllanish jarayonining kognitiv va semantik asoslarini tadqiq qilish, ramziy ma’no etaloni, obykti, ramzlashish asosi hamda vositalarini ochiqlash;

konseptual tahlillar orqali ramziy ma’nolar shakllanishida milliy tafakkurning o‘rnini yoritish; kognitiv metafora, kognitiv metonimiya orqali reallashgan ramziy ma’nolarda milliy mentallikning aks etishini oydinlashtirish;

ramziy ma’noda milliy qadriyatlar aks etishini aksiolingvistik tahlillar orqali dalillash;

maqol va frazemalarda aks etgan ramziy ma’nolarning madaniy kod tashuvchisi sifatidagi maqomini belgilash, kodlarda namoyon bo‘lgan ma’noning antropotsentrik jihatlarini asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek xalq maqollari”, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”¹² va badiiy asarlardagi ramziy ma’noli lisoniy, nutqiy birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi ramziy ma’nolarning lingvomadaniy, konseptual va aksiolingvistik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, struktur, komponent, lingvomadaniy, konseptual, aksiolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ramziy ma’noning mohiyati ochilib, uning o‘ziga xos xususiyatlari dalillangan, ramzlashish jarayonining kognitiv va semantik jihatlarini yoritilgan, ilk marta ramziy ma’no etaloni, obykti, ramzlashish asosi hamda vositalari aniqlangan;

ramziy ma’noning konseptual tahlili *ostona, tuproq, tuz* leksemalari misolida amalga oshirilib, mazkur ma’noning shakllanishida millat tafakkur tarzining ta’siri dalillangan;

ramziy ma’noning shakllanishida milliy qadriyatlarning ta’siri *qon, non* leksemalarining aksiolingvistik tahlillari orqali o‘rganilgan, ramziy ma’no qadriyatlarni saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazishning qulay vositasi ekanligi ochiqqlangan;

ramziy ma’noga ega *bug‘doy, olma, chinor, tog‘, suv, olov, it, tulki, ilon, oq, qora, keng, tor* leksemalari, mazkur komponentli maqol va frazemalar

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. I жилд. – 680 б., II жилд. – 671 б., III жилд. – 687 б., IV жилд. – 606 б., V жилд. – 591 б.; Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b; Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.; Махмудов Н., Худойбеганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

lingvomadaniy tahlil qilingan hamda bu ramziy ma'nolar millat madaniyatini o'zida yorqin namoyon qilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi ramziy ma'noning antropotsentrik jihatini o'rganish natijasida olingan xulosalar ramziy ma'noli so'zlarning izohli va o'quv lug'atini yaratishda amaliy yordam beradi;

tadqiqot jarayonida izohlangan ramziy ma'nolardan O'zbek tilining yangi o'n jildli izohli lug'atini yaratishda material sifatida foydalanish mumkin;

tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi ramziy ma'nolarni izohlovchi elektron platforma, mobil ilova dasturini yaratishda manba bo'la olishi bilan ahamiyatlidir;

tadqiqot materiallari va natijalari korxona, tashkilot, muassasalarning logotiplarini yaratishda milliy ramzlardan foydalanish tavsiyasi va aniq taklifini bera oladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, ishdagi materiallarning ilmiy metodlar orqali izohlangani, nazariy fikr hamda xulosalar amaliyotga joriy etilgani, tilshunoslikdagi asosiy metod va ko'rsatmalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati erishilgan natijalar, ishlab chiqilgan nazariy qarashlar o'zbek tilshunosligining lingvomadaniyatshunoslik, aksiolingvistika hamda semantika sohalarini ramziy ma'noga oid yangi ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniyatlararo muloqot jarayonida ramziy ma'nolarni izohlashda, izohli, tarjima, o'quv lug'atlarini tavsiflashda ilmiy-nazariy manba vazifasini o'tashi, ilmiy natijalardan oliy o'quv yurtlarida "Lingvomadaniyatshunoslik", "Semasiologiya", "Aksiolingvistika", "Kognitiv tilshunoslik" bo'yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilidagi ramziy ma'noning antropotsentrik aspekti tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ramziy ma'noning mohiyati ochilib, uning o'ziga xos xususiyatlari dalillangani, ramzlashish jarayonining kognitiv va semantik jihatlari yoritilgani, dasturlash uchun o'zbek tili leksikonining ramziy ma'noga ega birliklarining so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi morfemalar va qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar qurshovini lingvistik modellashtirishga oid ilmiy-nazariy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-iyuldagi

01/4-2936-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilining morfologik bazasi ramziy ma'noli so'zlar va ularning morfologik qurshovi bilan boyitilgan;

ramziy ma'noning konseptual tahlili *ostona, tuproq, tuz* leksemalari misolida amalga oshirilib, mazkur ma'noning shakllanishida millat tafakkur tarzining ta'siri oydinlashtirilgani; ramziy ma'nolarning shakllanishida milliy qadriyatlarning ta'siri *qon, non* leksemalarining aksiolingvistik tahlillari orqali ochib berilganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2023-2024-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli "Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish markazining 2025-yil 22-oktabrdagi 1606/1-son ma'lumotnomasi). Natijada xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasi bazasi o'zbek milliy tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini o'zida aks ettirgan ramziy ma'noli so'zlar bilan boyigan;

ramziy ma'noga ega *bug'doy, olma, chinor, tog', suv, olov, it, tulki, ilon, oq, qora, keng, tor* leksemalari, mazkur komponentli maqol va frazemalar lingvomadaniy tahlil qilingani, bu ramziy ma'nolar millat madaniyatini o'zida yorqin namoyon qilishi isbotlanganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-iyuldagi 01/4-2937-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada yaratilgan ta'limiy korpus ramziy ma'noga ega bo'lgan bir qancha leksema va frazemalarning ma'nolari bilan boyitilgan;

ramzlarning kelib chiqish tarixi, tarixiy taraqqiyot davomida so'zlar ramziy ma'nolarida qanday o'zgarishlar bo'lganligi, farqli jihatlari, ularning yuzaga kelish sabablari, ramziy ma'noli so'zlarning badiiy adabiyot va xalq boyligi hisoblangan maqol, iboralarda qo'llanilishi, ramziy so'zlar zahirida yashiringan ichki ma'no nozikliklariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Vaqt mashinasi" dasturi ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2025-yil 22-maydagi 01-33/344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilidagi ramziy ma'nolarning o'ziga xosliklariga oid materiallar ko'rsatuv ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, respublika ilmiy nashrlarida 4 ta, xorijiy jurnalda 2 ta chop qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 137 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Ramziy ma’noning nazariy asoslari va shakllanishi”** deb nomlanib, uning mazmuni uch paragrafda yoritilgan.

1.1. paragrafda *“Ramz va ramziy ma’no munosabati: fanlararo yondashuvlar”*ga oid qarashlar tahlil qilingan. Til inson tafakkuri, madaniyati, yashash tarzi bilan bog'liq bo'lib, til egasi bo'lmish millatning bor bisotini o'zida aks ettiradi. Til so'z orqali olamni to'g'ridan to'g'ri nomlabgina qolmay, balki mislsiz inson tasavvuri, cheksiz obrazli mushohadasi, betakror assotsiatsiyalari mahsuli bo'lgan ramzlashgan lisoniy olam manzarasini ham yaratadi. Olamning lisoniy ramziy manzarasi millat tafakkurining mahsuli ekan, u til egalarining kognitiv, madaniy va aksiologik olami bilan shartlangan bo'ladi.

Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir. Ramz va ramziy ma'no esa ushbu tizimning eng muhim semantik birliklaridan biridir. Ramz – tashqi belgi, obraz, shakl bo'lib, u o'zida ma'no ifodalaydi. Ramz kodlash jarayonining mahsuli bo'lib, unga muayyan ma'no yuklanadi. Masalan, davlat gerbida aks etgan Humo qushi, bug'doy, yarim oy, sakkizburchak ramzlardir. Har qanday ramz o'zida nafaqat belgi ifodalovchi shakl, balki mazmuniy qatlamni ifodalar ekan, u obrazlilik, madaniy kod sifatidagi barqarorlik, milliy tafakkur mahsuli ekanligi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ramziy ma'no esa shu belgi ostida yashiringan madaniy-semantik qatlamdir. U dekodlash jarayonining mahsuli bo'lib, ramzning madaniy, emotsional, psixologik va kognitiv asosda shakllanadigan mazmunidir. Masalan, Humo qushining ramziy ma'nosi *“tinchlik, baxt va ozodlikka intilishdir”*. Ramziy ma'no tarixiy xotira, milliy dunyoqarash, diniy e'tiqod, xalqning madaniy tajribasi, psixologik assotsiatsiyalar asosida shakllanadi va taraqqiy etadi. Dissertatsiyada ramzning falsafa, folklor, adabiyotshunosik, estetika, san'at, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, semiotika, lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya fanlaridagi talqinlari o'rganildi.

Ushbu fanlar kesimidagi tahlillar ramz tushunchasining serqirra tabiatga ega ekanini ko'rsatdi. Xususan, falsafa ramzni borliqni bilish shakli, estetika borliqni badiiy-estetik idrok etish va ifodalashning muhim vositasi, adabiyotshunoslik esa badiiy tafakkurning obrazli ifodasi sifatida talqin qiladi. Leksik birliklarning ramziy ma'nolari tasavvuf adabiyotida o'ziga xos tizimni shakllantirishi ma'lum.

Tasavvufiy ramziy ma'nolar tizimi leksemalarning kundalik ma'nolaridan tubdan farq qiladi va u botiniy mohiyatni zohiriy obraz orqali ifodalashning qulay usulidir. Masalan, *may* ilohiy muhabbatdan sarxushlik, muhabbat zavqining to'lib-toshishi timsolidir. *Mastlik* ilohiy ishqdan behush bo'lish, ya'ni dunyoviy manfaatlardan voz kechish holatini anglatadi. *Soqiy* piri komil, *jom* esa orif inson qalbi va ilohiy tajalli aks etgan moddiy dunyo, borliq ramzidir¹³. *Quyidagi* baytda mazkur leksemalarning ramziy ma'nolari tasavvuf falsafasi asosida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan:

*Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqti sado.
G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo* (Alisher Navoiy).

Psixologiyada ramz inson ruhiyati bilan aloqadorlikda o'rganilsa, sotsiologiyada ramz ijtimoiy ong bilan bog'liq holda izohlanadi. Semiotika ramzni belgilar tizimining markaziy elementi deb qarasa, lingvokulturologiya doirasida u til, milliy madaniyat va tafakkur mushtarakligida shakllanadigan semantik hodisa sifatida yoritiladi.

1.2. paragrafda "*Ramziy ma'noning lingvistik talqini va o'rganilishi*" yoritilgan. Semiotikada ramz dastlab Ferdinand de Sossyur va Charlz Pirs¹⁴ tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ular tilni belgilar tizimi sifatida o'rgangan.

T.Yuliya ramzni tadqiq qilar ekan, unda bir qancha vazifalar mavjudligi, ulardan biri axborot-kommunikatsiya vazifasi ekanligini aytadi va ramz insonlar o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishi, axborot almashinuviga sabab bo'lishiga to'xtalib o'tadi. U ramzlarni etnik, mifologik, diniy, badiiy turlarini ajratadi¹⁵.

Jahon va o'zbek tilshunosligida ramzlarni o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar bajarilgan. A.Losev, N.Rubsov, S.Todorov, E.Kassierlar¹⁶ tomonidan ularning falsafiy talqini yoritilgan bo'lsa, F.de Sossyur, Ch.Pirs, Y.Lotmanlar¹⁷ semiotik talqinini ochib bergan, madaniyatshunoslikdagi o'rni esa N.Arutyunova, A.Golan, M.Makovskiy¹⁸ va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

¹³ Bu haqda qarang: Комилов Н. ва б. Бадий адабиётда тасаввуф ва тимсоллар. – Тошкент, 2010. – 200 б.; Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. 24-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 280 б.

¹⁴ Соссюр Ф. Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан И. Мирзаев таржимаси. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – 308 б.; Пирс Ч. Принципы философии. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. – 424 с.

¹⁵ Юлия Т. Символ в межкультурной коммуникации: Автореф. дисс. ... д-ра филос. наук. – Ростов-на-Дону, 2008. – С. 23-25.

¹⁶ Лосев А. Проблема символа и реалистическое искусство. – М.: Искусство, 1995. – 320 с.; Рубцов Н. Символ в искусстве и жизни. – М.: Наука, 1991. – 176 с.; Тодоров Ц. Теории символа. – М.: Дом интеллект книги, 1998. – 384 с.; Кассирер Э. Опыт о человеке. – М.: Гардарики, 1998. – 784 с.

¹⁷ Соссюр Ф. Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан И. Мирзаев таржимаси. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – 308 б.; Пирс Ч. Принципы философии. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. – 424 с.; Лотман Ю. Избранные статьи. Т. 1. – Таллин, 1992. – 479 с.

¹⁸ Арутюнова Н. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.; Голан А. Миф и символ. – М.: Русслит, 1993. – 376 с.; Маковский М. Язык-мифкультура: Символы жизни и жизнь символов. – М., 1996. – 329 с.

O'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligida O.Ochilov, N.Jumatova, S.Jumayeva, N.Toirova, Sh.Turdimov, N.Sabirova, M.Ro'ziyevlarning¹⁹ dissertatsiyalari ramz va ramziy ma'no tadqiqiga bag'ishlangan.

Tilshunoslikda A.Medvedova ramziy ma'noning farqli va struktur jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa²⁰, Sh.Atayev nemis tilidagi simvolik vositalarning o'zbek tilida berilishini o'rganadi²¹. I.Rejapov esa olamning lisoniy manzarasida sonlarning ramziy ahamiyatini ochiqlashga harakat qiladi²².

A.Abdullayev ramz tushunchasi, ramzlarning struktural-semantik xususiyatlari kabi masalalarni yoritgan va ramzning yondosh hodisalar (shartli belgi, metafora, allegoriya, etalon)dan farqini izohlagan. Lingvistik ramzlarni "shakldan mazmunga" tamoyili asosida 9 ta quyidagi ma'no guruhlariga ajratgan: allegorik, fitonimik, narsa-buyum nomlarini bildiruvchi, rang-tus, son, tabiat hodisalari va samoviy jismlar orqali voqelanuvchi, vaqt (payt) ma'nosidagi, shaxs va joy nomlari orqali ifodalangan, diniy va mifologik²³. A.Abdulayevning tadqiqotida sistem-struktur, tasniflash kabi usullar yetakchilik qilsa, bizning ilmiy ishimizda ramziy ma'no antropotsentrik tahlillar asosida o'rganildi. Mazkur tadqiqotdan farqli ravishda dissertatsiyamizda ramziy ma'no lingvomadaniy, konseptual, aksiolingvistik jihatdan tadqiq qilingan, paremiologik birliklarda aks etgan ramziy ma'nolarga alohida e'tibor qaratilgan.

1.3.paragraf *"Ramziy ma'noning shakllanish asoslari"* deb nomlanadi. Ramzlar insoniyatning tafakkuri, hayotiy tajribasi, yashash tarzi, atrof-muhiti bilan bog'liq hisoblanadi. Turli tafakkur tarziga ega millatlarda ramzlarning farqli ekanligi ramziy ma'noga asos bo'lgan umumlashtirish, olamning milliy nigoh ostidagi tasavvurlar turlicha ekanligidan dalolat beradi. Bunday farqlarning mavjudligini turli omillar bilan sharhlash mumkin: zoonim, fitonim, geografik joylashuv, iqlimning o'ziga xosligi, diniy e'tiqod, tarixiy xotira, madaniy qarashlar, tafakkur tarzi, qadriyatlarining farqli ekanligi.

Har bir hududning iqlimi, geografik joylashuviga mos bo'lgan hayvonot olami mavjud bo'lib, xalq o'ziga tanish hayvonlarning xususiyatlari, yashash tarziga qarab ularni ramzlashtiradi. Masalan, kenguru Avstraliyada yashaydi va uning ramzi hisoblanadi. Avstraliyaliklar kenguruni orqaga yurishni bilmagani

¹⁹ Очиллов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 148 б.; Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 126 б.; Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърлятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 126 б.; Тоирова Н. Бадиий адабиётда кўзгу ва сурат рамзларининг ғоявий-эстетик вазифалари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 133 б.; Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 184 с.; Сабирова Н. Хоразм халқ лирик кўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадиий-эстетик вазифалари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 156 б.; Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 147 б.

²⁰ Медведева А. Символическое значение как тип значения слова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2000. – 187 с.

²¹ Атаев Ш. Символик воситаларнинг немис тилидан ўзбек тилига берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 173 б.

²² Rejapov I. Olamning lisoniy manzarasida sonlarning ramziy ahamiyati (ingliz va o'zbek tillari materiallarida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Urganch, 2025. – 56 b.

²³ Abdullayev A. O'zbek tilida ramzning ifodalanihi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2024. – 152 b.

uchun “biz doim olg‘a yuradigan millatmiz” semantikasi asosida o‘zining ramziga (oldinga yuradigan, dadil qadam tashlaydigan) aylantirgan.

Fitonimlar ham har bir hududda takrorlanmasdir. Masalan, ginkgo o‘simligi Xitoyda o‘sadigan daraxt hisoblanadi. U ibodatxonalar yaqinida o‘sadi, uzoq umr ko‘rish tufayli “o‘lmaslik” ramziy ma‘nosiga ega.

Ma‘lum bir yurtida qaysi tabiat hodisasi doimiy mavjud bo‘lsa, uni nomlovchi leksemalarga turli xil ramziy ma‘nolar yuklanadi. *Vulqon* so‘zida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan “yaratish va halokat”, “tug‘ilish va o‘lim” kabi ramziy ma‘nolar mavjud. Bunday zid ma‘nolarning shakllanishiga kuchli olovning otilishi natijasida atrofni vayron qilishi va natijada ayrim (kumush, mis, qalay, olmos, v.h.) konlar paydo bo‘lishi asos qilib olingan. *Vulqon* nomining bunday ramziy ma‘nolari *vulqon* otiladigan joydagina mavjud. Masalan, Gavayi orollari, Markaziy Amerika, Italiya, Meksika, Indoneziyada vulqonlar mavjudligi bois shu xalqlarda u ramziy ma‘noga ega. O‘zbek lingvomadaniyatida *vulqon* so‘zining ramziy ma‘noga egaligi kuzatilmaydi. Aksincha, shamol ko‘p kuzatiladigan tabiat hodisasi hisoblanib, *Qo‘qon shamoli*, *Bekobod shamoli* kabi birikmalar mavjud. U “shiddat” ramziy ma‘nosida qo‘llanadi: “*Usmon she‘riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she‘riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi*”²⁴.

Shuningdek, diniy qarashlarning farqli jihati; dunyoqarash, yashash tarzining o‘ziga xosligi asosida ham turli tillarda farqli ramziy ma‘nolar shakllanadi. Ya‘ni turli millat egalari olamni har xil baholashi, olamga bo‘lgan farqli munosabatlari asosida betakror ramziy ma‘nolar paydo bo‘ladi. Bu esa Gumboldt aytganidek, “Tillar nafaqat bilingan haqiqatlarni ifodalash vositasi, balki ilgari bilinmagan haqiqatlarni ochish vositasi hamdir. Tillar o‘rtasidagi farq nafaqat tovushlar va belgilarning turlichaligida emas, balki dunyoni ko‘rishning farqliligi bilan ham bog‘liqdir”²⁵.

Dissertatsiyaning II bobi “**Ramziy ma‘noning lingvomadaniy, konseptual va aksiolingvistik tadqiqi**” deb nomlanib, to‘rt paragrafdan iborat.

2.1. paragrafda “*Ramziy ma‘noning o‘ziga xos xususiyatlari*” tahlil qilingan. Ramziy ma‘no voqelik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanmagan, nomlanayotgan narsaning bevosita nomiga aylanmagan, aksincha, uning ramziga aylangan, obrazlilik hosil qilish uchun xizmat qiluvchi ma‘nodir.

Ramziy ma‘no hosila ma‘no sanalib, unda leksemaning nominativ ma‘nosi saqlanib qoladi. Ya‘ni nominativ ma‘noda nomlanayotgan aniq denotat mavhum tushuncha uchun ramzga aylanadi. Chunki “mavhum tushunchalar bevosita kuzatishda berilmagan bo‘lib, ularning shakli mavjud emas”²⁶. Bu jarayon orqali til egalari shaklga ega bo‘lmagan mavhum tushuncha uchun muayyan shaklni berishga harakat qiladi. Masalan, “ayyorlik” mavhum tushuncha bo‘lib, til egalari uni aniq tasavvur qila olmaydilar. Ammo ushbu tushunchaga ayyor hisoblangan tulki ramz qilib olinganda, ayyorlikni obrazli tasavvur qilish mumkin bo‘ladi. Tulki o‘zining “ayyor hayvon” semasi orqali ramziy ma‘no hosil qiladi. Agar

²⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/usmon-nosir-2.html>.

²⁵ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 318-319.

²⁶ Хакимова М. Абстракт номлар семантикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 68.

bo'lsami, o'tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan, mug'ombirligiga, qari tulkiligiga hamma tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponiyaning saqichidek hech kimga bermay chaynab lazzatlangan bo'lardilar (U.Hamdam, Muvozanat).

Ramziy ma'no so'zlarning ko'chma, timsoliy ma'noda qo'llanilishi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilida *chinor* leksemasining "mustahkamlik" ramziy ma'nosi uning nominativ ma'nosi asosida vujudga kelgan. Ushbu leksemaning nominativ ma'nosidagi "baquvvat", "uzoq umr ko'ruvchi" denotativ semalari asosida mazkur ramziy ma'no shakllangan: *Saidjon akamga bir gap bo'lsa bormi, direktorning ham oyog'i osmondan bo'ladi-da. Lekin direktor zo'r odam, chinor! Ancha-muncha arra yiqitilmaydi uni* (X.To'xtaboyev, Mungli ko'zlar). *Bolalining beli – chinor, bolasizning beli sinar* (Maqol).

Tilda har qanday mavhum tushuncha ramziy ma'noga aylanmaydi. Millatda o'zi uchun muhim hisoblangan, qadrlangan yoki qoralangan, milliy tafakkur orqali uzoq yillar davomida shakllangan tushunchalargina ramziy ma'noning obyekti bo'lishi mumkin. Konsept darajasidagi tushunchalar xalqqa yaqindan tanish, aniq narsalar, belgilar orqali ramziy ma'no shakllanishiga asos bo'ladi. Shu bois ramziy ma'nolar milliy tafakkurning manbasi deyish mumkin.

Ramzlashish jarayoni ramziy ma'no etaloni, obyekti, ramzlashish vositalari va ramzlashish asosidan tashkil topadi. Bunda ramziy ma'no etalonini lingvomadaniy birliklardan *bashik, belbog', o'choq* kabi milliy-madaniy realiyalar, *Alpomish, Barchin* kabi pretsedent nomlar, *qo'y, she'r, ot* kabi lingvomadaniy kodlar tashkil qiladi. Obyekti esa "vafo", "farzand" kabi milliy-madaniy konsept, *bolajonlik, halollik* kabi qadriyat, *yovuzlik, odobsizlik* aksqadriyat darajasidagi tushunchalardan iborat bo'ladi. Ramzlashish konseptual metafora, konseptual metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabi vositalar yordamida shakllansa, jarayonga milliy va umuminsoniy tafakkur asos bo'ladi.



1-rasm. O'zbek tilida ramzlashish jarayoni

2.2. paragraf “*Ramziy ma’noning lingvomadaniy talqini*”ga bag’ishlangan. XX asrning oxirlaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma yetakchilik qila boshladi. N.Mahmudov haqli e’tirof etganidek, “antropotsentrizm faqat til tadqiqigagina tilshunoslar tomonidan nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir”²⁷. Tilshunoslikda yetakchi paradigmalardan hisoblangan antropotsentrik paradigmaning sohalaridan biri bo‘lmish lingvomadaniyatshunoslik madaniyatning tilda aks etishini o‘rganadi.

Milliy-madaniy realiyalarning ramziy ma’no uchun etalon bo‘lib kelishi ko‘p kuzatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*beshtik*” realiyasi o‘zbek tilida 2 ta: “*Vatan*” hamda “*hayotning boshlanishi*” tushunchasini ham anglata boshlagan. Birinchi ramziy ma’no o‘zbek xalqida “*Vatan – tug‘ilgan maskaning*” degan tafakkur bilan bog‘liq holda shakllangan. Ma’lumki, xalqimizda tug‘ilgan maskan qadimdan juda qadrlanadi, uni tashlab ketish xiyonat sanaladi. Bu madaniy konseptual qarash “*tug‘ilgan joy muqaddasdir, unda ota-bobolarning xoki bor*” kabi milliy qadriyatlar asosida shakllangan.

Demak, *beshtik* leksemasining mazkur ramziy ma’nosi “*tug‘ilgan makon*” semasi asosida kognitiv metonimiya vositasida shakllangan. Ushbu ramziy ma’no quyidagi matnda yaqqol namoyon bo‘ladi:

*Naqshin nigor beshigim,
Quyosh ochgan eshigim.
Otam aytgan qo‘shig‘im,
Jonajonimdir Vatan* (S.Sayyid, Vatan qo‘shig‘i).

Lingvomadaniy birliklardan biri bo‘lgan pretsedent birliklar ham ramziy ma’no ifodalaydi. Badiiy matnlarda an’anaviy tarzda qo‘llanadigan Hotam – saxiylik, Luqmoni Hakim – donolik, Xizr – abadiylik, baraka, Ayyub – sabr, Majnun – Haqqa oshiqlik, Yusuf – go‘zallik kabi ramziy ma’nolarda ko‘p ishlatiladi. Ammo bular bilan birga o‘zbek tili yangi ramziy ma’noli onomastik birliklar bilan ham boyib bormoqda. Masalan, *To‘maris*, *Barchin* – mard, oriyatli ayol; *Shiroq*, *Jaloliddin* – vatanparvar yigit; *Bobur*, *Furqat* – hijron, ayriliq; *Kumush* – iboli o‘zbek ayoli ramzi sifatida ishlatilmoqda. *To‘marislar keldi deya qo‘ydi yozib, Olimp tog‘in osmono‘par toshlariga* (R.Madumarov, *To‘marislar keldi*). *Barchinlar qon kechar, Yaqinda alp yo‘q, Yorilay deysan-u, Ko‘ksingda qalb yo‘q* (A.Obid, Xavotir oroli). *Bugun ulg‘aymoqda har xonadonda, yovga bo‘yin egmas Jaloliddinlar* (N.Oston, Ikki lavha). Demak, millat atoqli ot asosidagi pretsedent birliklarda muayyan bir tushunchani ifodalash ekan, ayrim hollarda mana shu atoqli ot bilan nomlanayotgan shaxsni shu tushunchaga ramz qilib beradi.

Lingvomadaniy kodlar ramzni shakllantirishda muhim vosita sanaladi. Masalan, *anor* fitomorf kod sanalib, u baraka tushunchasini ifodalash bilan birga baraka va farzandning ramziga aylanib qolgan. Bu ramziy ma’no sabab xalqning orzu-istaklari natijasi sifatida qadimdan o‘zbek uy-joy me’morchiligi, kulolchiligi, kiyimlarida anor naqshi keng ishlatilgan, qadimdan uylarni bezashda anor

²⁷ Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 55.

tasviridan foydalanilgan. Bugungi kunda anor reklamalar, marketing sohalarida ham belgi (logotip) sifatida ishlatilib, brend nomi yaratilishiga asos bo'lgan.

Muayyan bir davrda leksemaning ramziy ma'nolarida zidlik (enantiosemiya) kuzatilishi mumkin. Bunda bir so'z ham ijobiy, ham salbiy ramziy ma'no anglatadi. Masalan, tarixdan ma'lumki, qora rang "yovuzlik", "baxtsizlik", "qayg'u" kabi salbiy va "kuch-qudrat", "buyuklik", "oddiylik" ijobiy ramziy ma'nolarga ega bo'lgan. 840-1212-yillar oralig'ida O'rta Osiyo va Movarounnahrda hukmronlik qilgan²⁸ sulolaning *qoraxoniylar* deb nomlanishida *qora* rangning yuqoridagi ijobiy ramziy ma'nolari asos qilib olingan. Bugungi kunda qora rangning ijobiy ramziy ma'nosi ancha so'ngan.

Demak, tilda ramziy ma'nolarning davriy o'zgarishlari, zamonlar osha xiralashuvi kuzatiladi. Yana bir misol: bo'ri qadimdan "quch-qudrat" va "qonxo'rlik" ramziy ma'nolariga ega bo'lgan. Bo'rining turkiylarda totem bo'lganligi, nomning antroponimizatsiyasi ham ijobiy ramziy semantika natijasidir. Lekin bugungi kunga kelib, bo'rining "kuch-qudrat" ramziy ma'nosi ancha so'ngan, uning "qonxo'rlik" ramziy ma'nosi kuchaygan: *Eldan ayrilganni bo'ri yer; Bo'rining og'zi yesa ham qon, yemasa ham – qon.*

2.3. paragraf "*Ramziy ma'noning konseptual tahlili*" deb ataladi. O'zbek xalq milliy tafakkuri, madaniyati, turmush tarzi, olamga bo'lgan munosabati leksemalarning turli xil ramziy ma'no anglatishida alohida ahamiyatga ega. Har bir xalqning milliy tafakkur tarzining mavjudligi dunyoni ko'rish, idrok etishning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu millatning konseptlarida ham voqelanadi. Tildagi konseptlarni tahlil qilishda xalqning turmush tarzi, tafakkur darajasi, madaniyati, e'tiqodi kabi xususiyatlariga e'tibor qaratish kerak.

Hamma tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham "vatan" konsepti milliy-mental o'ziga xosliklar bilan mavjud. Ushbu konseptning o'zbek tilida "tug'ilgan makon" kognitiv belgisi *tuproq* so'zining ramziy ma'nosi orqali yuzaga chiqadi. Uning ko'chma ma'nodagi "ma'lum yurt, o'lka, mamlakatga qarashli hudud" semasi asosida ramziy ma'nosi yuzaga kelgan. U ko'pincha *ona tuproq*, *tug'ilgan tuproq*, *muqaddas tuproq* kabi birikmalarda; *tuproq'i tortmoq*, *tuproq'i shu yerdan olingan* kabi iboralarida ishlatilib, manzildan ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. *Ona tuproq* iborasi faqat geografik makonni emas, balki Vatan konseptini ham anglatadi:

Avliyolar, daholarning beshigisan,

Naqshbandlar topgan jannat eshigisan.

Tiriklikning navosi ham qo'shig'isan –

Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,

O'zbekiston, ota makon, ona tuproq! (I.Mirzo, Ona tuproq).

O'zbek xalqida *tuz* leksemasi konsept darajasidagi bir nechta tushunchalar uchun ramzga aylangan. Ushbu leksema orqali ikkita ramziy ma'no ifodalanadi: "ma'no", "rizq-nasiba". Uning birinchi ramziy ma'nosi kognitiv metafora asosida shakllangan. Bunda o'zbek xalqi ovqatning tuzi uning sifatini belgilab beruvchi asosiy vosita ekanligiga gapning ma'nosi ham eng asosiy birlamchi ahamiyatli

²⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraxoniylar_davlati.

jihati ekanligini o‘xshatgan. Demak, ma’no, mantiq mavhum tushuncha bo‘lib, o‘zbek xalqi bu tushunchani oson anglash uchun ovqatning tuziga o‘xshatgan va u orqali anglash oson kechgan. Ovqatning tuzi xalqqa tanish, aniq narsa, bu o‘rinda uning nomi orqali anglangan ma’no, mantiq tushunchasi ham tasavvur qilish mumkin bo‘lgan mohiyatga aylangan. Biz ma’no, mantiq deganimizda ko‘z oldimizda obraz namoyon bo‘lmaydi. Ammo bu mohiyatga nisbatan *tuz* leksemasini qo‘llar ekanmiz, muayyan obraz vujudga keladi. Mana shunday qo‘llash natijasida *tuz* ma’noning ramziga aylanib qolgan va *tuz* leksemasi bugungi kunda “ma’no, mantiq” ramziy ma’nosiga ega. Quyidagi misollarda esa uning “rizq-nasiba” ramziy ma’nosi yuzaga chiqqan: *Shundog‘ qilib sizning o‘z kishingiz bo‘lg‘an O‘tabboy tuz haqingizni unutdi* (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar); *Ellik uch yil! Ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz tatigan, bir ko‘rpani bosgan, birga kulgan, birga yig‘lagan...* (A.Qahhor, Anor).

1-jadval.

Nominativ va ramziy ma’nolarning qiyosiy jadvali

№	Ma’no turi	Nominativ ma’no	Ramziy ma’no
		Gapning <i>mazmuni</i>	Gapning <i>tuzi</i>
1	Signifikativ ma’no	+	+
2	Obrazli ma’no	-	+
3	Ramziy ma’no	-	+
4	Ta’sirchanlik	+	++
5	Ifodaning aniqligi	+	+
6	Xalqning milliy tafakkuri	-	+

2.4. paragrafda “*Ramziy ma’noda milliy qadriyatlarining aks etishi*” yoritilgan. So‘zning ramziy ma’nolari yuzaga chiqishida xalq milliy qadriyatlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Bunday qadriyatlar sifatida yurtga muhabbat, halollik, ishonch, oilaga e’tibor va sadoqat, mehr-oqibat, bolajonlik, nonni qadrlash, naslga e’tibor qaratish, ota-onani e’zozlash kabilarni keltirishimiz mumkin. F.Usmanov qadriyatlarni o‘rganar ekan: “Qadriyatlar madaniyatning tilda aks etgan, jamiyat a’zolarining barcha xatti-harakatlari uchun me’yor vazifasini bajaruvchi asosiy kategoriyasi sifatida gavdalanadi”²⁹, – degan xulosaga keladi.

Ushbu faslda milliy qadriyatlar aks etuvchi “non” va “qon” konseptlarining ramziy ma’nolari o‘rganildi.

Ma’lumki, non va uni qadrlash o‘zbek xalqida alohida qadriyatga aylangan, millat uni aziz, mo‘tabar deb biladi. Non o‘zbek xalqi uchun nafaqat yegulik, balki qadimdagi qurg‘oqchilik, ocharchiliklarda muhim ahamiyat kasb etgan qadrlı, muqaddas narsa, uni uvol qilmaslik qadriyatga aylangan tushuncha bo‘lgani uchun *noni ko‘paysin, noni butun bo‘lsin* (duo), *non ursin, non ko‘r qilsin* (qarg‘ish) va *non ursin* (qasam) kabi birikmalar mavjud.

Non(i) butun bo‘ldi, yarimta non(i)ni butun qilmoq, non(i) yarimta bo‘ldi kabi iboralarda *non* leksemasi “tiriklik manbayi” ramziy ma’nosida qo‘llangan. *Non* leksemasining “tiriklik manbayi” ramziy ma’nosi uning badiiy imkoniyatlarini

²⁹ Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Andijon, 2024. – B. 93.

ham oshirishga xizmat qiladi: *O‘z kuching orqasidan non topib yegil, tekinxo‘rlikka o‘rganma, oliyjanob, mard odamlar bilan suhbatdosh bo‘lsang, yaxshilik bilan nom chiqarasan* (T.Malik, Odamiylik mulki); *Sizga o‘xshaganlar ko‘paysa, mendaqalarga non qolmaydi* (T.Malik, Shaytanat).

Qadriyat darajasidagi konsept tilda o‘z ifodasiga ega bo‘lar ekan, u so‘z, ibora, maqol va ramziy ma’nolar bilan voqelanadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqida naslga e’tibor qaratish, o‘z naslini bilish, u bilan faxrlanish, naslni toza tutish alohida qadriyat sanalgan. Qadimdan shajaralar tuzilgan, naslni yaxshi nasllar bilan bog‘lash maqsadida kelin va kuyovlarning ajdodlari aniqlangan, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar qo‘llab-quvvatlanmagan.

